

## ARABLARNING MOVAROUNNAHRDAGI ISLOMLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

**Pardayev M.X**

*Tarix fanlari nomzodi Dots*

**Abduraxmonov B.I**

*JDPU magistranti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada Islom dini qisqacha tarixi, uning Movarounnahrda yoyilishi, ijtimoiy va siyosiyosatiga doir mavjud ayrim manba va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilindi hamda ba'zi mulohazalar keltirib o'tildi.*

**Kalit so'zlar:** *Arab xalifaligi, Islom dini, Movarounnahr, "Qur'on Karim" "Buxoro tarixi", Ahmedov. B.A, masjid, madrasa, xiroj va jiziya.*

Movaraunnahrni VIII asrda bosib olgan arab bosqinchilari bu yerda o'zlaridan ancha ustun madaniyatga duch keldi. Bunday holatda Islom dinini yoyish mushkul edi. Shuning uchun ular bu yerdagi barcha madaniyat namunalarini yo'q qilishga kirishdilar. Ming yillardan buyon e'zozlab kelinayotgan san'at asarlari noyob inshoatlar barchasi yoqib yuborildi. Mahalliy aholiga o'z tilida yozish va so'zlashish taqiqlandi. Arablarning bosib olingan yerlardagi birinchi vazifasi aholini diniga kiritish, bo'tun-bo'tun o'lkalar aholisini Muxammat payg'ambarimiz ummatlariga aylantirish edi. Movaraunnahrning Buxoro, Samarqand, Kesh kabi yirik shaharlaridagi har bir mahallaga masjidlar qurildi. Arabistondan ko'chirib keltirilgan ko'plab oilalar joylashtirildi. Biroq. Mahalliy aholining diniga kirishi oson kechmadi va uzoq yillar mobaynida singib bordi. Dastlab nomozga kelgan aholi (asosan aholining asosiy kambag'al qismi kelard) ga 2 dirhamdan pul ulashilishi ko'plab aholining masjidlarga qatnashiga sabab bo'la boshlad<sup>1</sup>

joriy qilingan hududlarda tashqil bo'lgan davlat boshliqlari shu din qonun-qoidalariga rioya qilib, uning ta'limotlaridan chetga chiqmadilar. Lekin din bayrog'i ostida o'z yovuz niyatlarini amalga oshirgan, bosqinchilik urushlari olib borgan hukmdorlar ham kam bo'limgan. Movarounnahr va jumladan, Samarqaqdda Qo'tayba o'limidan keyin arablar hokimiysi nomigagina mavjud bo'lib, aholi, eng avvalo, aslzodalar, dehqonlar dan qaytgan edi. Shu boisdan, Xuroson noibligini egallagan Ashras, umuman, Movarounnahr va, avvola, Samarqand axliniga islomga kirishga chaqiradi va musulmon bo'lganlarni jizya solig'idan ozod qilishga so'z beradi.

Aholini oliq-soliqlar, odamlarni garovga olib, qul qilishlar juda qaqshatib bo'lgan edi. Shu sababli, Movarounnahr yurtlarida Ashrasning taklifi ma'qullanib, islomga qaytish sezilarli tuz oladi. Ashrasning Samarqandga olijanob, diyonatli ruhoniy Abu s-

---

<sup>1</sup> Belyaev V. A. Ilk o'rta asrlarda arablar, , Arab xalifaligi, M, 1965.



Sayd Solih ibn Tarifni va unga yordamchi qilib ar-Robi' ibn Imron at-Tamimiylarni targ'ibot uchun yuborishi aholida noibning va'dasiga ishonchni mustahkamlaydi. Abus-Sayd, Movarounnahrga borishda, Ashrasga islomga kirganlardan jizya soligi olinmasligini shart qilib qo'ygan edi. Noib ham bu shartni ma'qullab, unga katta vakolatlar bergen edi. Abu-s-Saydning Samarqandda olib boradigan xayrli ishini ko'pgina arab arboblari, lashkarboshilar qo'llab-quvvatlagan. Diyonatli namoyondasi jizya bobida ularning ham ko'magiga tayangan edi.

Abu-s-Sayd tashviqoti va kafoloti tufayli Samarqandning ko'p aholisi dinini qabul qiladi. Bu vaqtda Samarqandda harbiy va xaraj (soliq) ishlariga mas'ul bo'lib turgan al-Xasan ibn Abul Amarrata ham Abu-s-Saydga hamfikr bo'ladi, unga yordam ko'rsatadi. Samarqand ixshidi G'urak, chamasi, o'z qavmining islomni qabul qilishga shoshilayottanidan vahimaga tushibmi, yohud ularning soliq-soliqlardan ozod qilinayotganidan quvonibmi, harholda, Ashrasga «Darhaqiqat, xaraj tugadi», deb maktub yo'llaydi<sup>2</sup>.

Dyonat va xiyonat orasi juda yaqinligini Ashrasning qilmishi misolida ochiq ko'rish mumkin bo'ladi. U, Movarounnahr aholisini islomga da'vat etib, jizya solig'ini bekor qilishga va'da bergenida yuzaki ish to'tganligini, beburdlik va xiyonatni shior qilganligini tezda oshkor etadi. Al-Hasan ibn Abul Amarrataga (bu zot arablar bilan mahalliy aholini yaqinlashtirmoqni niyat qilgani haqida oldinrokla aytildi) noma yuborib, «Haqiqatda, musulmonlar kuchi xarajda, menga xabar qildilarki, so'g'diyalar va unga o'xshashlar jizyadan qo'tilish maqsadida, islomni sidqidildan emas, yuzaki qabul qilganlar. Qarab ko'r, kimki xatna qildirgan bo'lsa, e'tiqodi mustahkam, islomga sodiq, Qur'ondan biror sura o'qiy oladigan bo'lsa, uni xarajdan ozod qil», degan bo'yruqni beradi. Al-Hasan ibn Abul Amarrataga, vaqtida shu ish tashabbuskori bo'lgan noibning so'zidan qaytayotganligini hazm qila olmagan. Tez orada uning o'mniga Xoni' ibn Xoni' xaraj ishlari mutasaddisi qilib qo'yiladi. Ashras, soliq ishlarini mukammal yigishni ta'minlash maqsadida G'urakni ham Xoni' bilan birlikda mas'ul qilib belgilaydi.

Dyonatta qilingan xiyonat, aniq bo'ladiki, arablar o'rtasida ham bir xil qabul qilinmagan, islomga kirgan mahalliy aholi tarafdozlari faqattina norozi bo'lib qolmasdan, ular yonini olib, isyonga ham tayyor bo'lishgan. Al-Mujashshir va Xoni', ularga Marvdan yordamga yuborilgan Sulaymon ibn Abus Sarilar oliq-solikdar olishni nixoyatda kattiqqo'llik bilan amalga oshiradilar. Mahalliy aqolining taniqli, hurmatli kishilarini, aslzodalarini ham ayab o'tirmaydilar. Islomga kirganlardan ham jizya soliga o'ta qo'pollik va zo'rlik bilan yig'ib olinadi. Dehqonlarning kaltakdan ust-boshi yirtilgani, kamarlari bo'yniga solingan holda sazoyi etiladi. Aholi o'zining hurmatli kishilarining behurmat etilishiga, xaraj zo'rovonligiga chiday olmaydi. Bo'tun So'g'd va Buxoro aholisi Islomdan qaytadi va Turkistonga yordam so'rab murojaat qiladi.

<sup>2</sup> Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991, 158b



Voqealarning bunday rivojini kutmagan Ashras Movarounnahrga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. U oldinroq jo'natgan lashkarboshi Qatan ibn Qo'tayba 10 ming ko'shin bilan daryodan o'tgan va atrofi xandaq bilan o'ralgan bir mavzeda mustahkamlanib olgan edi. So'g'd va Buxoro aholisi, ularga yordamga kelgan turk Xoqoni arab lashkarini o'rab oladi. Bu orada Ashras ham Qatanga kelib qo'shiladi. Ikki o'rtada qatgiq janglar davom etadi. Arablardan ko'nlab kishilar halok bo'ladi. Oxir, ularning qo'li ustun kelib, Ashras Poykand ostonasida joylashishga erishadi. Aholi arablarga qatra suv qoldirmaslik chorasini ko'rgan-quduqdar ko'mib tashlangan edi. Arablar harchand quduq kovlashmasin suv chiqarishga muvaffaq bo'la olmaqdilar. Suvsizlik azobidan ko'ra qilich tigini afzal ko'rg'an arablar jon holatda xujumlar uyushtirib, qarshi turgnlarni quvish va Buxoroga yaqinlashish imkoniyatiga ega bo'ladilar<sup>3</sup>.

Umaviylar sultanatining Xurosondagi mustaxkam tayanchi, shubhasiz Nasr ibn Sayyor edi. U, bu lavozimda un yil faoliyat kursatadi. Eng so'nggi umaviy xalifa Marvon hokimiysi barham topganda xam u kurash maydonini tashlab chiqmagan edi. 126- xijriyda (744) Nasr ibn Sayyorga qarshi Xurosondagi Janubiy arab qabilalari yulboshchisi Juday ibn Ali ibn Shabib ibn Baroriy ibn Sunaym al-Kirmoniy al Azdiy kurashni kuchaytiradi. Nasr bu vavqtda ikki o't orasida qoladi. Bir tomonidan al-Kirmoniy unga taxdid solayotgan bo'lsa, daryo ortidan turkiylar bilan qalin ittifokda bo'lган al-Xoris ibn Surayj xujumanidan xavfi xam yo'q emasdi. Ko'pni ko'rgan arbob sifatida u al-Xorisni o'z tomoniga og'irish, uni turkiylardan ajratish fikriga keladi. Al-Xoris ibn Surayj xuzuriga, Movarounnaxrga Mukrtil ibn Xayyon, Sa'lab ibn Safvan, Anas ibn Bajal, Xudb ash-Sharaviy va Robi' al-Kurayshiyarlari yuborib, bulib o'tgan ishlarga salovat, Xurosonga, uz qavmdoshlaring-arablar yoniga qayt, avvaldagidek, uz mavqeyingni egallaysan, mazmunida xat qiladi<sup>4</sup>.

Al-Xoris ibn Surayj bu vavqtda Termizda yashab turar, maxalliy axrliing xurmatiga noyil bulib,adolat va dini kurashchisi sifatida mashxurlik kasb etgan edi. Uning umaviylar xokimiysi bilan kelishmovchiligi moxiyati mazlum xalklarga, dinini kabul qilganlari va kilmaganlariga Qur'oni Karim va Paygambar (CAB) sunnalari asosida muomala qilishni talab etishdan iborat bo'lган edi. U Abu-s-Sayd izdoshi sifatida arab amirlarining, lashkarboshilari va sipoxiyalarining zulm, faxsh va nafsga ruju qo'yganligidan qattiq nafratlangan, okibatda. umaviylarga kdrshi urush e'lon kilgan va turkiylar tarafida turib, kavmdoshlariga nisbatan murosasiz kurash olib borayotgan edi. U nixoyatda kamtarona xayot kechirar, kunlik taomi ham, aytlishicha, non-suvdan iborat bo'lган. Nasr ibn Sayyor al-Xorisning molu-mulkini musodara

<sup>3</sup> Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991,57b

<sup>4</sup> Narshaxiy M. "Buxoro Tarixi".T.-Kamalak 1992,124 b



kilgan va yakin karindoshlarini, jumladan, o‘gli Muxammad ibn al-Xorisni, qizlari al-Oluf binti al-Xoris va Umm Baqolarni xibsda saqlayotgan edi<sup>5</sup>.

Nasr ibn Sayyor, chamasi, al-Xorisni uziga yaqinlashtirish uchun barcha chorani ko‘rgan. Taxminan, uning rizoligini olganidan sung, guyo tashabbus al-Xorisning o‘zidan chiqqandek bulsin uchun Termiz axlidan Xolid ibn Ziyod al-Baddiy, amir kabilasidan Xolid ibn Amrlar, Xalifa Yazid ibn al-Valid xuzuriga yul oladilar va al-Xorisning avfini surashga bel bog‘laydilar. Yazid ibn al-Valid xalifalik masnadida bir yilga yaqin hukm surgan bo‘lsada, tagzamini bo‘sashib qolgan sultanatni imkon darajasida mustaxkamlashga extiyoj zurligini anglab yetgan. Shu boisdan, umaviylarga karshi kurashgan, eng yomon, mamlakat ichkarisida emas, mazlum etilgan o‘lkada, ular tarafida turib, Alloxning muqaddas kitobida aytilgan

tamoyillar buzilayotgani, sunnaga amal qilinmayottani da’vosi bilan chiqib, xalifalik kudratiga bemisl xalal yetkazayotgan gunoxkori azimni avf etish oqilona ish buladi. deb xisoblaydi. At-Tabariy Xalifa Yazid Sh ning al-Xoris ibn Surayjga yozgan maktubidan parcha keltiradi. Xalifa yozadi: «Biz ham Allox, ximoyasiga turdik, zero, uning buyurganlari buzildi, uning bandalari turli ofatlarga giriftor egildi, ko‘plarining qoni begunox to‘qildi, mol-xollari zo‘rlik bilan tortib olindi. Biz bu jamoani- Allox,-

yu qudratli va ulug‘dir-kitobi asosida qo‘tqarmokni istaymiz. Alloxdin uzga kuch yukdir! Shunday qilib, biz uz mulohazalarimizni senga bayon etdik, qo‘rkmasdan uzing va yana kimlar sen bilan birga bo‘lsa, kelaveringlar. Chunki, sizlar biznnng dustlarimiz va ko‘makchilarimizdirsiz. Va, men Adulloh ibn Umar ibn Abdulazizga sizning va avlodningizning musodara etilgan mol-mulkaringizni kaytarib berishini yozib yubordim».

Termizdan borgan elchilar Marvga kelib, Xalifa rizoligini Nasrga bildiradilar. Nasr xam xayollamasdan al-Xoris va uning yakinlaridan tortib olingan barcha ashylolarni kaytarib beradi. Birok,, al-Xoris ibn Surayjning avf etilishi silliq, ruy bergen deb bulmaydi, Xalq Xalifaning maktubi kelmay turib, Abdullox ibn Umar uz rozilgisiz al-Xorisni avf etgani uchun Nasrni malomat qiladi. Nasr qilmishidan tavba etib, al-Xorisni daryodan o‘tayotganda yuk qilish fikriga xam tushadi. Bu ikkilanishlarga xalifaning nomasi va ko‘rsatmasi chek quyadi.

Al-Xoris-ibn Surayj Movarouinaxrda 12 yil xayot kechiradi. U vavqtida Samarqanda Mansur ibn Umar amir bulib turgan paytda bu shaxarga kelgan edi. Shunday qilib, Umaviylar hokimiyatiga qarshi borgan, uning ustunlarini zilzilaga solgan, mazlumlarga qarshi qilich ko‘targanlarning qonini oqizgan, turkiylar safida mardonavor janglar qilgan arab lashkarboshisi, Xuroson xorijiyari yulboshchisi al-Xoris ibn Surayj 127-(745) xijriyda Marvga kaytadi<sup>5</sup>. Xorijiyalar ning xalqchil sho‘basi-xarakati bo‘lib, barcha musulmonlarning tengligi uchun kurash olib borganlar. Vaqtida, bu xarakatning Samarqanddagagi yirik siymolaridan va

<sup>5</sup> Ravshanov Poyon. Vatan tarixidan Turon VII-IX asrlarda. Qarshi, —Nasaf|| 2003.,



boshlovchilaridan biri Abus-Sayd bo‘lgan edi. U xam maxalliy axoli tarafida turib, adolatni Kur’oni Karim asosida, sunna vositasida talab qilganligi sababli Marvga chakirtirib ketilgan va keyingi takdiri no’malum qolgan edi. Xorijiyalar imom-xalifaning kelib chiqishidan kat’iy nazar, munosib kishilardan saylab kuyilishini yoqlaganlar.

Tabiiyki, Nasr ibn Sayyor va adolat yalovbardorining bu talablarini bajarishga kodir emas edi. Shu boisdan al-Xoris Nasrning fe’li ayniyotganidan shubxa qilib, uning rakibi al-Kirmoniy bilan aloka bog‘lashni ma’kul ko‘radi. Unga xam Nasrga ta’kidlagan talablarni – Qur’oni Karim va sunnaga amal qilgan takdirda yordamlashajagini shart kilib qo‘yadi. Marvda Xoris muxlislari ko‘paya boradi va ular soni tezda 3 ming kishiga yetodi.

128-(746) xijriyda Xalifa Yazid ibn al-Validning qisqa davom etgan xokimiyyati nixoyasiga yetadi. Oradan ko‘p o’tmay, Umaviylardan bo‘lgan so‘nggi Amiralmumu’m-in Morvan bu masnadni egallaydi. Xalifaliada bo‘lgan bu o‘zgarish Movaraunnahr ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi<sup>6</sup>.

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo‘lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jizya soliqlaridan ozod etilib, ularga ancha imtiyozlar berildi. ni qabul qilishdan bosh tortgan kimsalardan —jiz’ya undirib olingan. Bu soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan kishilar tutib olinib bo‘yinlariga —qarzdor deb yozilgan taxtacha osib qo‘yildi. Bunday amaliy chora tadbirlar shubhasiz Movaraunnahr aholisining diniga kirishini tezlashtirgan. Biroq shunday bo‘lsada, ni qabul qilgan aholining ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo‘lib, uzoq vaqtlargacha pinhona ravishda ota bobolari diniy –ma’naviy udumlarini sodiqlik bilan davom ettiraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Belyaev V. A. Ilk o‘rtaschlarda arablar, , Arab xalifaligi, M, 1965.
2. Ahmedov. B. O‘zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991,158b
3. Ahmedov. B. O‘zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991,57b
- 4 Narshaxiy M. “Buxoro Tarixi”.T.-Kamalak 1992,124 b
- 5 Ravshanov Poyon. Vatan tarixidan Turon VII-IX asrlarda. Qarshi, —Nasaf|| 2003.,
- 6 Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur simolar, allomalar, adiblar). T. Abdulla Qodiriy nomilagi nashrnyoti, 2001 yil

<sup>6</sup> Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur sii-molar, allomalar, adiblar). T.. Abdulla Qodiriy nomilagi nashrnyoti, 2001